

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SUROBOVA RAYXONA ZOKIRJONOVNA

**JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI
AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI**

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2023

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
политическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on political sciences**

Surobova Rayxona Zokirjonovna
Jamiyatni demokratlashtirishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish
mexanizmlari.....

Суробова Райхона Зокиржоновна
Механизмы общественного контроля в демократизации
общества.....

Surobova Rayhona Zokirjonovna
Mechanisms of public control in the democratization of
society.....

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati
Список опубликованных работ
List of publications.....

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SUROBOVA RAYXONA ZOKIRJONOVNA

**JAMIYATNI DEMOKRATLASHTIRISHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI
AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI**

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent–2023

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B 2022.2.PhD/Ss 333 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) O'zbekiston Milliy universiteti veb-sahifasida (www.nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jo'raev Ro'zimat To'xtasinovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Bo'tayev Usmon Xayrullayevich
siyosiy fanlar doktori, dotsent.
Xikmatov Xayrullo Xabibullayevich
siyosiy fanlar falsafa doktori.

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona Davlat Universiteti

Dissertasiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «_____» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100192, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti bino, 1-qavat 110 xon) Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-53-21, (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz)

Dissertasiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100192, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMU Ma'muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil «_27_»sentabrda tarqatildi.
(2023 yil «4» oktabrdagi 46 raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.I. Paxrutdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, s.f.d., professor.

G. Isanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori.(PhD), dotsent

A.G.Muminov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, s.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ro‘y berayotgan demokratik islohotlar va kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy va mafkuraviy jarayonlarning universiallashuvi inson omilini yuksaltirishga qaratilgan bo‘lib, bunga erishishda barqaror jamoatchilik nazoratini tashkillashtirish, boshqarish hamda nazorat mexanizmlarini yanada takomillashtirish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Chunki, jamiyatdagi har qanday o‘zgarishga nisbatan avvalo shaxs ruhiyati va uning ongida sog‘lom ijtimoiy munosabatni shakllantirish zarurati obyektiv hodisa hisoblanadi. Bu jarayonni amalga oshirishda ijtimoiy ong elementlaridan foydalanish subyektiv ahamiyat kasb etib, fan, san'at va din kategoriyalari ta'sirida jamoatchilik nazoratini rivojlantirishni davr talab etmoqda.

Jahon ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar tizimida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat sharoitida davlat hokimiyati organlarining samarali ishlashi uchun albatta ularning faoliyati jamoatchilik nazorati ostida kechishi lozimligini hozirgi davr rivojlangan davlatlar tajribasi isbotlamoqda. Jumladan, umumbashariy muammolarga qarshi xalqaro, mintaqaviy birlashuvni tashkillashtirish, diniy ekstremizm va terrorizm illatlarini bartaraf etishga qaratilgan umummanfaatli hamkorlikni boshqarish, jahon hamjamiyati tomonidan ekologik muammolarni oldini olish va ular ustidan samarali ijro nazoratini ta'minlash dunyo ilm-fanida dominant vazifa sifatida baholanmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda davlat hokimiyati va rahbarlar ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashga nazariyada ham, amalda ham katta e'tibor qaratiladi.

Mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarida xalq manfaatini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bugun “Xalq manfaati hamma narsadan ulug‘”dir, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” kabi ezgu g‘oyalarning ilgari surilayotganligi jamoatchilik nazoratini rivojlantirishga bo‘lgan e'tiborni ko‘satadi. Shu bilan birga “Kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda jamoatchilik nazoratini tizimli yo‘lga qo‘yish eng maqbul yo‘ldir”¹. Bu vazifani amalga oshirishda ijtimoiy ong elementlaridan fan, san'at va din omilidan foydalangan holda jamoatchilik nazoratini tashkillashtirish, boshqarish hamda nazorat tizimi o‘rtasida funksional uyg‘unlashuvga erishish obyektiv zarurat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2019-yil 17-yanvardagi PF-5633-con «Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2019-yil 22-fevraldagi PF-5667-con «Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4473-son “Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik

¹ Мирзиёев Ш.М Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2017. –489 б.

nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-oktyabrdagi PQ-4473-son "Jamoatchilik palatasini shakllantirish" to'g'risidagi qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi O'RQ-474-son «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi qonuni, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" va uni "inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yil"ida amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq shuningdek mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning 2020-2023 yillarga mo'ljallangan I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida sifat jihatdan tamomila yangi bosqichni boshlab bergan strategik g'oyalari, asarlarida ilgari surilgan jamiyatimizda jamoatchilik nazoratini o'rnatish bilan bog'liq xulosalar,² Birinchi Prezident Islom Karimovning jamoatchilik fikri borasidagi konseptual g'oyalari hamda Sharq va G'arb olimlarining qarashlari mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Jamoatchilik fikri shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarning o'zgaruvchanlik dinamikasi, rivojlanish qonuniyatlari, o'zaro aloqadorlik tendensiyalariga nisbatan kompleks-sistemali yondashuv, jahonda olib borilayotgan tadqiqotlarning doimiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Jumladan, xorij olimlaridan Jon Solsberi – ilk bor jamoatchilik nazorati tushunchasiga ilmiy ta'rif bergan bo'lsa, *Nikkolo Makiavelli* – jamoatchilik nazorati fenomeniga siyosiy tus berib, har qanday davlat boshqaruvi xalq irodasiga bo'ysunishi kerakligini ko'rsatadi. Tomas Mor – jamoatchilik fikri erkin va adolat prinsipiga asoslanib shakllanishi uchun xususiy mulkchilikning ta'siri haqida fikr yuritib, bu tushunchaning iqtisodiy kategoriyasini ochib beradi.³ Tommazo Kampanella – jamoatchilik nazoratining huquqiy maqomiga alohida e'tibor berib, har bir fuqaro fikri jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etishi, ya'ni oddiylikdan umumiylikka qarab borishi va ma'lum darajaga yetgan, o'z ta'sir doirasida xususiylashuvini ilmiy isbotlashga harakat qiladi. Immanuel Kant – jamoatchilik nazorati shakllanishida diniy e'tiqodning o'zni masalasiga metodologik yondashuvni ilgari suradi. Georg Vilgelm Fridrix Gegel, Frans fon Golsendorf, Jan Gabriel Tard – jamoatchilik nazoratiga alohida kategoriya sifatida qaragan. Xose Ortega-i-Gasset o'zining «La rebelión de las masas» nomli asarida shunday xulosaga keladi: dunyoni

² Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2017. –488 б.

³ Гражданское общество: контроль на...<http://elibrary.ru>

jamoatchilik nazorati boshqaradi, bu shunday asosiy kuchki, unda kishilar hamjamiyatidagi hukmronlik kelib chiqadi⁴.

Jamoatchilik nazorati borasidagi dastlabki tasavvurlar ilk davlatchilikning vujudga kelishi va ularning jamiyat bilan munosabatlariga borib taqaladi. Jumladan, Forobiyning fozil jamiyat haqidagi konsepsiyasida fuqarolarning davlat hokimiyati foliyatidagi ishtiroki va nazoratiga doir salmoqli fikrlar uchraydi. Jamoatchilik nazorati siyosiy tartibot doirasida Sh.L.Monteske, T.Gobbs, J.Lokk, J.Russo, G.V.Gegel kabi mutafakkirlar tomonidan ilk bor ilmiy asosda izohlangan.⁵ Masalan J.J.Russo “ijtimoiy shartnoma” konsepsiyasini ilgari surar ekan, u davlat tomonidan hokimiyat vakolatlari xalq manfaatlarini hisobga olmagan holda qo‘llaniladigan bo‘lsa, ijtimoiy shartnomaga rioya qilmaslik kuzatilishini aytib o‘tgan. Gegel esa, jamoat manfaatlarining himoya qilinishi va davlatda tartibni saqlash hokimiyat vakillari o‘zboshimchaliklari va noqonuniy harakatlaridan himoya qilishni ta'minlashi kerakligini ta'kidlaydi.

MDH mamlakatlari olimlaridan Uledov Aleksandr Konstantinovich – jamoatchilik fikriga voqelik sifatida baho berib, ijtimoiy hayotdagi har bir jarayon avvalo ijtimoiy ongda shakllanib, so‘ng jamoatchilik fikri orqali namoyon bo‘lishini keltirib o‘tadi. Boris Andreyevich Grushin – jamoatchilik nazoratiga ommaviy harakat sifatida qarab, uning shakllanishiga turtki beruvchi omillar sirasiga jamiyatda fuqarolar siyosiy madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq ijtimoiy muhitning mavjudligini e'tirof etadi.⁶

Mamlakatimizda davlat va jamiyat munosabatlarining demokratlashuvi jarayonlari va jamoatchilik nazorati tizimining shakllanishi bilan bog‘liq jihatlari N. Jo‘raev, Sh.Paxrutdinov, T.Alimardonov, R.Jumaev, K.Mirzaaxmedov, A.Muminov, F.Musaev, X.Odilqoriyev, A.Saidov, N.Umarova, I.Ergashev, M.Qirg‘izboev, Q.Quranbaev, Sh.Qudratxo‘jaev, V.Qo‘chqorov, B.Hasanov, U.Yazdanov, M.Zoirova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning tadqiqotlarida o‘zbek milliy davlatchiligi tarixi va nazariyasida siyosiy tizim va demokratik siyosiy tartibotning jamiyat hayotidagi o‘rni va roli, fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida jamoatchilik nazorati va jamoatchilik fikrining o‘rni kabi masalalarning ayrim jihatlari keng yoritilgan.

Biroq yuqorida nomlari keltirib o‘tilgan olimlar ijodida jamoatchilik nazorati fenomeniga nisbatan individual munosabat ilgari surilgan bo‘lib, biz tadqiqotimizda jamiyatni demokratlashtirishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlari rivojlantirishni ijtimoiy-siyosiy jihatdan asoslab berish nuqtai nazaridan qarashni maqsad qilib olganmiz.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining nazariy va huquqiy asoslarini tadqiq qilish” mavzusi doirasida bajarilgan.

⁴ Титов В.Ф. Хосе Ортега-и-Гассет о месте и роли философии в жизни общества // Вестник МГТУ, 2010. №2.

⁵ Локк Д. Избранные философские произведения. -М.:1960.Т 2. Монтескье Ш. Избранные произведения.-М.: 1955.-С.289. Гоббс Т. Левиафан, или Материя, форма и власть государства церковного и гражданского. //

⁶ Грушин Б.А. Мнения о мире и мир мнений. –М.: Праксис, 2011. –546 с.

Tadqiqotning maqsadi. Jamiyatni demokratlashtirishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, unda nodavlat va notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining o'rnini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Davlat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning nazariy-huquqiy asoslari tahlil qilish;

parlament nazorati demokratik jamiyatining muhim jamoatchilik nazorati omili ekanligini asoslab berish;

davlat hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning xorijiy va O'zbekiston tajribasini qiyosiy taqqoslash;

yuksak huquqiy madaniyat jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning muhim omili ekanligini isbot qilish;

demokratik saylovlarni amalga oshirishda jamoatchilik nazoratining o'rnini aniqlashtirish;

O'zbekistonda jamoatchilik nazoratini rivojlantirishda xorijiy tajribaning o'rnini muhimligini asoslash;

davlat boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini hamda jamoatchilik nazoratini ta'minlashda nodavlat va notijorat tashkilotlarining o'rnini aniqlashtirish;

O'zbekistonda jamoatchilik nazoratini rivojlantirishning o'ziga xos muammolari va yechimlari ko'rsatib berish va ularni bartaraf etish yuzasidan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini jamiyatni demokratlashtirishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish va ularni rivojlantirish bilan bog'liq jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti. O'zbekistonda jamoatchilik nazoratida ommaviy axborot vositalarining ishtiroki va uning mexanizmlarini ilmiy tadqiq qilish.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiyada tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, prognozlash kabi usullar hamda tizimli, funksional yondashuvlar kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston demokratik taraqqiyotining 1991-2016 yilgacha bo'lgan davri rivojlangan huquqiy-institutsional asoslarni yaratishga qaratilgan - passiv evolyutsion bosqich hamda 2017 yildan hozirgi kungacha bo'lgan davr amaliy natijalarga yo'nalgan strategik maqsadlar, demokratik jarayonlarni jadallashtirish va jamoatchilik nazoratini takomillashuviga qaratilgan aktiv evolyutsion bosqichga ajratish zarurati asoslab berilgan;

Siyosiy transformatsiyalashuv jarayonlarida jamoatchilik nazorati subyektlari faoliyatining muhim indikatorlari bo'lib, davlat va jamiyatning siyosiy tizimi o'zgarishlariga daxldor bo'lgan xalq roziligi, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash hamda aholi ehtiyojlariga qaratilgan zaruriy tarkibiy islohotlarni amalga oshirish adolatli ijtimoiy tartibotga xizmat qilishi ochib berilgan;

Aholida jamoatchilik nazorati jarayonlarini amalga oshirishda faol qatlamga olib chiqish hamda siyosiy qadriyat darajasida madaniyatini shakllantirishning yetakchi mexanizmlari bo'lib "ijtimoiy harakat", "ijtimoiy birdamlik", "ijtimoiy kelishuv", "ijtimoiy jipslik" kabi normativ-qadriyatiy g'oyalarga tayanilishi demokratik ijtimoiy plyuralizmning asosi ekanligi isbotlangan;

Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatida mustaqillikni to'la kafolatlash, nazorat obyektiga bo'lgan ta'sir mexanizmlarini soddalashtirish, aholining islohotlarga bo'lgan manfaatli, ijtimoiy sheriklik asosidagi ishtiroki davlat hokimiyati organlari faoliyatining legitimligini oshishiga xizmat qilishi asoslab berilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mamlakatda jamoatchilik nazoratini shakllantirishda fuqarolarning ayniqsa, yoshlarning faolligini oshirish, siyosiy-huquqiy madaniyati va manfaatdorligini oshirish bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga oid kategoriya va ilmiy tushunchalar mazmun-mohiyati ochib berilgan;

Jamiyatda nodavlat va notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining rolini oshirish orqali davlat va jamiyatning aloqa kanallari va siyosiy jarayonlar ustidan nazoratni kuchaytirish mumkinligiga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalaridan jamiyatda jamoatchilik nazoratini samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirishda, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirishda nazariy manba sifatida foydalanilish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro hamda respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatiga kirgan maxsus va xorijiy mamlakatlar jurnallarida chop etilgan maqolalar, xulosa, amaliy taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot davomida olingan natijalarning ilmiy ahamiyati davlat va nodavlat organlarining islohotlar jarayonida siyosiy ishtiroki samaradorligini oshirish, fuqaro, aholining siyosiy faolligini oshirish, jamoatchilik nazoratidagi ishtirokini ta'minlashga qaratilgan islohotlar, bunda nodavlat va notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining roli, islohotlarning ilmiy asosda bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishida, amaliy ahamiyati esa davlat organlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilishida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa boshqaruvchi va ijtimoiy nazoratini ta'minlashga xizmat qiladigan institusional tizim elementlarining o'zaro uyg'unlashuvini rivojlantirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni, ta'lim muassasalari uchun o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlashda hamda davlat va jamiyat boshqaruvini demokratlashtirish yo'lida jamoatchilik nazoratini tashkillashtiruvchi, foydalanilish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Jamiyatni demokratlashtirishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlari mavzusidagi tadqiqot ishi yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosa va takliflar asosida quyidagilarga erishildi:

O‘zbekiston demokratik taraqqiyotining 1991-2016 yilgacha bo‘lgan davri rivojlangan huquqiy-institutsional asoslarni yaratishga qaratilgan - passiv evolyutsion bosqich hamda 2017 yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davr amaliy natijalarga yo‘nalgan strategik maqsadlar, demokratik jarayonlarni jadallashtirish va jamoatchilik nazoratini takomillashuviga qaratilgan aktiv evolyutsion bosqichga ajratish zarurati asoslangan xulosalardan “Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazining 2020-2022 yillarda o‘tkazilgan O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlarini tadqiq etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda foydalanilgan (“Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazining 2022 yil 1 dekabrda 01-272 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlarini tadqiq etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot samaradorligi oshgan;

Siyosiy transformatsiyalashuv jarayonlarida jamoatchilik nazorati subyektlari faoliyatining muhim indikatorlari bo‘lib, davlat va jamiyatning siyosiy tizimi o‘zgarishlariga daxldor bo‘lgan xalq roziligi, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash hamda aholi ehtiyojlariga qaratilgan zaruriy tarkibiy islohotlarni amalga oshirish adolatli ijtimoiy tartibotga xizmat qilishga doir xulosalaridan O‘zbekiston respublikasi Ekologik partiyasi 2022-2024 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston respublikasi Ekologik partiyasi 2023 05 yanvardagi yil 01/11 sonli) Natijada, ushbu “Jamiyatni demokratlashtirishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlari” mavzusidagi tadqiqot ishida keltirilgan xulosalar, takliflardan partiya faoliyatida foydalanishi respublikamizda kechayotgan tub islohotlar jarayonidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq jihatlarni keng qatlamiga chuqurroq tushuntirish va bu boradagi olib borilayotgan ishlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Aholida jamoatchilik nazorati jarayonlarini amalga oshirishda faol qatlamga olib chiqish hamda siyosiy qadriyat darajasida madaniyatini shakllantirishning yetakchi mexanizmlari bo‘lib “ijtimoiy harakat”, “ijtimoiy birdamlik”, “ijtimoiy kelishuv”, “ijtimoiy jipslik” kabi normativ-qadriyatiy g‘oyalarga tayanilishi demokratik ijtimoiy plyuralizmning asosi ekanligi isbotlangan xulosalaridan O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligini faoliyatidagi turli targ‘ibot va tashviqot ishlarida foydalanilgan. (O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligining 2022 yil 7 dekabrda 3-13-23-4219-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada keltirilgan xulosa va takliflar mamlakatimiz yoshlari ongida jamiyatda jamoatchilik nazoratini rivojlantirishda yoshlarning mas’uliyatini oshirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va siyosiy faolligini oshirish yuzasidan tushuncha hosil qilishga xizmat qilgan;

Jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi subyektlar faoliyatida mustaqillikni to‘la kafolatlash, nazorat obyektiga bo‘lgan ta’sir mexanizmlarini

soddalashtirish, aholining islohotlarga bo‘lgan manfaatli, ijtimoiy sheriklik asosidagi ishtiroki davlat hokimiyati organlari faoliyatining legitimligini oshishiga xizmat qilishi tavsiyalaridan tavsiyalardan O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiya faoliyatining 2022-2024 yillarga mo‘ljallagan harakat dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan(2022 yil 10 martdagi 3-13-23-4219-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, jamoatchilik nazoratining rivojlanishi davlat hokimiyati organlari faoliyatini aholiga xizmat ko‘rsatishga samarali ixtisoslashuvi hamda davlat hokimiyati organlariga xalq ishonchini ortishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, Oliy attestasiya komissiyasining dissertasiyalar natijalari chop etilishi mumkin bo‘lgan nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 6 ta xorijiy jurnalda, ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlarida 3 ta, jumladan xalqaro konferensiyalarda 4 ta va mahalliy konferensiyalarda 3 maqola nashrdan chiqqan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning hajmi 135 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertasiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

davlat va jamiyat o'rtasidagi ko'priknining mustahkamlanishiga va uzluksiz Dissertasiyaning **“Jamiyatni demokratlashtirishda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida jamiyat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning nazariy-huquqiy asoslari, Parlament va jamoatchilik nazorati demokratik jamiyatining muhim omili ekanligi, davlat hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning xorijiy va O'zbekiston tajribasiga oid davlat siyosatini tadqiq etishning metodologik va konseptual asoslari ochib berilgan.

Bizga ma'lumki, jamoatchilik nazorati – bu jamiyatning alohida fuqarolar shaxsida hamda fuqarolik jamiyati institutlari vositasida davlat hokimiyati organlarining qonunlarni va o'z qarorlarini qo'llash, amalga oshirish, shuningdek bu jarayonlar natijalarini baholash mexanizmidir.

Shu bilan birga, jamoatchilik nazorati deganda fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari – jamoat va nodavlat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalarining davlat va mahalliy hokimiyati organlarining qonunga amal qilishlarini ta'minlashga majburlash, o'z vazifasini bajarishida mas'uliyatni his etishi, o'z majburiyatlarini sifatli tarzda bajarishi kabi faoliyatlari ustidan turli shakldagi tekshiruvlarni amalga oshirishidir. Rivojlangan davlatlarda jamoatchilik nazoratini jamiyatda tutgan o'rni uning qanchalik “transparent” ekanligi, ya'ni shaffoflik darajasi bilan o'lchanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati barpo etishda yuzaga kelgan vaziyatga baho berib dedi: “Bugungi kunda mamlakatimizda jamoatchiligimiz tom ma'noda uyg'ondi, endi turli lavozimdagi shaxslarning xatti-harakatlariga odamlarimiz bevosita baho berib, o'z fikrini erkin ifoda etishga o'rganayotganligini alohida ta'kidladi”.

Jamoatchilik nazorati ijtimoiy faollik bilan bog'liq. Inson ijtimoiylashuv jarayonini boshidan kechirar ekan, unda tabiiy ravishda siyosiy jarayonlarda ishtirok etishga ishtiyoq vujudga keladi. Jamiyatdagi muammolarning ko'payishi ijtimoiy faol fuqarolarni yanada dadil bo'lishga undaydi, kundalik muammolarni bartaraf etgan holda umumxalq ahamiyatiga ega bo'lgan masalalarga e'tibor qaratishga jalb etadi.

Hozirgi davrga xos zamonaviy davlatlarda jamoatchilik nazorati ijroiya va boshqa hokimiyat tarmoqlarini qonunga amal qilishni, o'z huquq va vakolatlarini malakali tarzda bajarishga majburlaydi. Jamoatchilik nazorati kuchsiz bo'lgan holatlar ko'pincha o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan davlatlarga xos belgi hisoblanadi. Ushbu sohadagi olimlarning tadqiqot natijalarida ko'rsatilishicha, bu kabi holatning asosan uchta sababi mavjud:

birinchidan, hokimiyat faoliyatini shaffoflik (ochiqlik) bilan ro'y berishini ta'minlaydigan mexanizmlarning yetishmasligi;

Ikkinchidan, hali o'rta sinfning jamoatchilik nazoratining bosh ijtimoiy bazasining tashkil etishga ulgurmaganligi;

uchinchidan, davlat hokimiyati organlari mansabdorlarida va fuqarolarida jamoatchilik nazoratining moxiyati, usullari, uslublari, shakllari, mexanizmlari va vosita-qurollari to'g'risida zarur bilimlar va tasavvurlarning yetishmasligi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllanishiga shart-sharoitlarni yaxshilash omili sifatida G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlari va AQSh kabi davlatlarning jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga doir tajribalarini o'rganishga zarurat tug'iladi. Zero, bu vazifa fuqarolik jamiyatini qurishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonni rivojlantirishning prinsipial yo'nalishlarini belgilab bergan, 2020-yilning bosh hujjati bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida Parlamentning davlat va jamiyat hayotidagi o'rni va rolini oshirish, parlament nazoratini takomillashtirib borish haqida batafsil to'xtalib, quyidagi fikrlar bildirib o'tildi. "Parlament ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida hukumat, tarmoq va hududlar rahbarlarining hisobotini muntazam eshitib borishi lozim".

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan ushbu g'oyaning zamirida mamlakatimizni eng rivojlangan, zamonaviy demokratik davlatlar qatoriga qo'shilishida parlament nazoratining samarali amalga oshirilishi lozimligi uqtirib o'tiladi. Zero, huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilaridan biri, parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlari mavjudligidir.

Davlat rahbari Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 12-iyuldagi siyosiy partiyalar vakillari va Oliy Majlis palatalari vakillari bilan o'tkazgan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzasida «Ijro hokimiyati idoralari faoliyatini nazorat qilishda Prezidentning asosiy ko'makchilari kim? Albatta, siz, muhtaram deputat va senatorlar. Sizlar mening oldimga kelib, ijro hokimiyati idoralarining kamchilik va nuqsonlari haqida asosli ma'lumotlar berishingiz, vazirlik va idoralar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha masalani ko'ndalang qo'yishingiz, kerak bo'lsa, vazir va hokimlarni lavozimdan bo'shatishgacha bo'lgan takliflarni kiritishingiz lozim» deya ta'kidlagan edi.

Parlament nazoratini amalga oshirish bilan bog'liq xorijiy tajribaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu institut o'sha davlatning siyosiy tizimidan, boshqaruv shaklidan kelib chiqib, har bir davlatda alohida o'ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi.

Boshqaruv shaklidan kelib chiqib, parlamentlar ijro hokimiyati faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu bir qator davlatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Belgiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Kanada, Kosta-Rika, Litva, Misr, Yangi Zelandiya, Yaponiya kabi davlatlar qonunchiligida belgilangan. Masalan, 1978-yilda qabul qilingan Ispaniya Konstitusiyasining 66-moddasi 2-qismida: “Bosh karteslar Davlatda qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradilar, Byudjetini ma’qullaydi. Hukumat faoliyatini nazorat qiladi”. Yaponiya Konstitusiyasida Hukumatning Parlament oldidagi kollektiv javobgarligi prinsipini mustahkamlagan. Buyuk Britaniyaning “Parlament to’g’risida”gi 1911-yilgi Qonuniga ko’ra, Parlament Hukumat faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. U quyidagi shakllarda tashkil etiladi: Vakillar palatasi deputatlari Hukumat a’zolariga savollar yo’lidaydilar. Vazirlar Vakillar palatasi majlislarida ushbu savollarga javob qaytaradilar, savollarga yozma javob tayyorlaydilar va bu yozma javoblar parlament hisobotlarida nashr etilib, keng jamoatchilikka yetkaziladi.

Darhaqiqat, demokratik davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, agar davlat va jamiyat hayotiga doir masalalarni ko’rib chiqish va hal qilishda parlamentning ishtiroki darajasi qanchalik yuqori bo’lsa, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati shunchalik samarali tashkil etiladi.

Jamoatchilik nazorati mamlakatimizda olib borilayotgan korrupsiyaga qarshi faol siyosat, keng ko’lamli islohotlar haqida xabardor etish, jamoatchilikning kayfiyatini, munosabatini bilishda ayni muddao hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, mazkur Qonun davlat organlari hamda mansabdor shaxslar faoliyati samaradorligini yanada oshirishga, eng muhimi, bevosita fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza etish mexanizmining yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Bu eca “Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilining amalda qaror topishini ta’minlaydi.

Dissertasiyaning **“O’zbekistonda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning o’ziga xos mexanizmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida yuksak huquqiy madaniyat - jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mexanizmi sifatidagi roli, jamiyatni demokratlashtirish va demokratik saylovlarni amalga oshirishda jamoatchilik nazoratining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati, O’zbekistonda jamoatchilik nazoratini rivojlantirishda xorijiy tajribaning o’rni hamda fuqarolar siyosiy faolligini oshirish masalalari tahliliga e’tibor qaratilgan.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining izchil rivojini ta’minlash, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda aholi vakillari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa inctitutlarining nufuzi va rolini oshirishda mutlaqo yangi institut bo’lgan Jamoatchilik palatasining ahamiyati ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatning har bir a’zosi o’z huquq va burchlarini hamda mas’uliyatini puxta bilishi, buni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamog’i lozim. Fuqarolarimizning tafakkuri, dunyoqarashi, mamlakat hayotidagi yangilanishlarga mos ravishda o’zgarib borishi huquqiy madaniyat tushunchasi bilan chambarchas bog’liqdir.

2022-2026 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi. A’yon bo’lmoqdaki, odamlarimizning huquqiy

madaniyati davlat va jamiyat taraqqiyotining bugungi talablariga to'la javob beradi, deb bo'lmaydi.

Prezidentimiz tomonidan joriy yilda qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmon mazkur yo'nalishda oldimizda turgan muhim vazifalarni belgilab bergan muhim hujjat bo'ldi.

Farmonda "mazkur yo'nalishdagi mavjud kamchiliklar birma-bir ko'rsatib berilgani uning ahamiyatli jihati sanaladi. Hujjatda qayd etilganidek, bugungi kunda aholida qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks yondashilyapti, deb ayta olmaymiz. Shaxsiy manfaatlar va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlari yetarli emasligi — qonun ustuvorligini ta'minlashga salbiy ta'sir etmoqda. So'nggi vaqtlarda respublikamizning turli hududlarida ba'zan mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari kamsitilishiga oid holatlar haqida global axborot tarmog'ida maqolalar berilayotganligi kuzatiladi. Bu salbiy holatlarning asl sababi fuqarolarda huquqiy bilim yetishmasligiga borib taqaladi".

Bundan tashqari, targ'ibot tadbirlarida ko'pincha samarasiz seminar, davra suhbatlari va shu kabi uchrashuvlarni tashkil etish bilan cheklanib qolinmoqda, targ'ibot jarayonida innovatsion usullardan yetarlicha foydalanilmayotgani a'yon bo'lmoqda. Bu esa jamiyatimiz taraqqiyotiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ya'ni qonunlarning ijrosi bir xilda ta'minlanmayapti, islohotlar bo'yicha qabul qilingan hujjatlar ham o'zining yetarli samarasini bermayapti.

Bizga ma'lumki, davlat va jamiyatning rivojlanganligini belgilaydigan bir qator muhim omillar bor. Biz qisqa qilib, buning uchta jihatini sanab o'tamiz:

"birinchidan, jamiyat a'zolarining huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi baland bo'lishi lozim;

ikkinchidan, rivojlangan jamiyat a'zolarining, davlat fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy faolligi yuksak bo'lishi kerak;

uchinchidan, davlat fuqarolarining jamiyatdagi islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usi mavjud bo'lishi shart".

to'g'risini aytish kerak, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik haqida gap ketganda ko'pchiligimizda faqat qonunlarni bilish yoki ulardan xabardorlik darajasi tushuniladi. Aslida bu juda keng tushuncha bo'lib, yuqorida sanab o'tilgan davlat va jamiyatning rivojlanganligini belgilaydigan uchala omilni ham o'z ichiga oladi.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan. Bunga, o'z navbatida jamoatchilik nazorati institutiga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi ham sabab bo'lgan".

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq

qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan muhosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashish lozim.

Erkinlik qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim omilidir. Bobomiz Amir Temurning "Qayerda qonun hukmronlik qilsa, o'sha yerda erkinlik bo'ladi", degan o'g'itlari hozirgi kunda ham o'ziga xos ma'no kasb etmoqda.

Albatta, erkin va adolatli jamiyat qurish uchun qonunga tayanishimiz va qonun ustuvorligiga erishishimiz lozimdir. Chunki har qanday davlatning qudratli va mustahkam bo'lishi, xalqining tinch va farovon hayoti amaldagi qonunlarning ustuvorligiga bog'liqdir.

O'zbekistonda davlat boshqaruvining respublika shakli joriy etilgan. "Respublika (lotincha "Respublika" so'zidan olinib, jamoa ishi, xalq ishi degan ma'noni anglatadi) – davlat hokimiyati aholi tomonidan muayyan muddatga saylab qo'yiladigan organlar tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv shaklidir. Respublikaning parlamentlik va prezidentlik respublika shakllari mavjud. (Ba'zida aralash respublika shakli ham uchraydi)".

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining saylab qo'yilishi, ularning qonunda ko'rsatilgan ma'lum muddatdan so'ng almashtirib turilishi respublikaning davlat boshqaruv shakli sifatidagi belgisidir. Jahon davlatchilik amaliyotida "respublika" saylab qo'yiladigan organlardan iborat davlat shakli bo'lganligi uchun uni demokratik deb hisoblash qabul qilingan. Ammo, dunyodagi hamma respublikalar ham demokratiyaning ijobiy ifodasi bo'lavermasligini kuzatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi davlatimizni respublika deb e'lon qilish bilan birga, davlat organlari tashkil etilishi va faoliyat yuritishining demokratik mexanizmlari va institutlarini mustahkamlab qo'ygan. Bular referendum instituti, saylov instituti, jamoat nazorati instituti, parlament nazorati instituti va boshqalar.

Bugungi kunda ko'pgina olimlar jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda davlat va mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatning qonuniyligi va samaradorligini baholash, shuningdek ko'rsatib o'tilgan idoralar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari va erkinliklarining buzilishlarini payini qirqish bo'yicha huquqiy choralar ko'rish lozimligini ta'kidlab keladilar.

Shu ma'noda "davlat hokimiyati va jamiyat munosabatlarini shakllantirish shakllari to'g'risidagi qarashlarning evolyutsiyasi, ular o'rtasida muloqot o'rnatish fuqarolarning ishtiroki shakllarini aniqlash, siyosiy qarorlarni qabul qilishda ham "jamoatchilik nazorati" tushunchasining ahamiyatini tadqiq qilish nihoyatda muhimdir. Jamoatchilik nazoratining optimal mexanizmlarini ishlab chiqish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish uchun muhim unsur hisoblanadi, chunki aynan jamoatchilik nazorati nafaqat davlat boshqaruvining transparent tizimini vujudga keltirishga, balki jamiyat oldida davlat xizmatchilari mas'uliyatini oshirishga ko'maklashadi".

Jamoatchilik nazoratidagi jamoatchilik fikri mexanizm sifatida jamoatchilik nazorati ko'pincha "to'rtinchi hokimiyat" tushunchasiga muvofiq keladi. Shu bilan birga, bu nazorat turi funksional imkoniyatlari - ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda ish olib borishdan tortib, korrupsiyaga qarshi siyosatning muhim

tarkibiy qismiga qadar, qonun loyihalarini muhokama qilish va qarorlarni ishlab chiqish, normativ hujjatlar qoidalarida yoki potensial korrupsiyalashgan qoidalarni aniqlashga qadar bo‘lgan ishlarni qamrab oladi.

Tadqiqotning **“Yangi O‘zbekistonda jamoatchilik nazoratini rivojlantirishdagi o‘ziga xos muammolar va ularning yechimlari”** deb nomlangan uchinchi bobida davlat boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini hamda jamoatchilik nazoratini ta'minlashda nodavlat va notijorat tashkilotlarining o‘rni, jamoatchilik nazorati – fuqarolik jamiyatini rivojlantirish omili sifatida ahamiyati, yangi O'zbekistonda jamoatchilik nazoratini rivojlantirishning o‘ziga xos muammolari va yechimlari bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan.

Bugungi kunda hukumatning axborot jihatidan ochiqligi demokratik jamiyatning ustuvor jihati, davlat organlari tomonidan qarorlarning qabul qilinishi va ijrosiga konstruktiv ta'sir usuli hisoblanadi. “Harakatlar strategiyasi”da davlat apparati faoliyati ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga tegishli axborotni taqdim etishning zamonaviy shakllarini joriy etish davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish jarayonining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab qo‘yilgan. Amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida hokimiyatning barcha darajalarida tatbiq etilayotgan “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan g‘oya bosh omil sifatidan nomoyon bo‘lmoqda.

Mahalliy ekspertlarning fikricha, ochiqlik - bu davlat boshqaruvi organlarining rejalari, natijalari va joriy faoliyatiga doir tezkor ma'lumotlarni olish imkoniyati, me'yoriy-huquqiy bazaning ochiqligidir. NNTlar uchun - bu matbuot xizmatlari faoliyati, jamoat kengashlari bilan o‘zaro aloqa, murojaatlar bilan ishlash haqida ma'lumot berishdir.

